

TILLARNI TADQIQ QILISHDA TARIXIYLIK TAMOIYILINING O'RNI VA AHAMIYATI

Akramjon Maxmudovich QO'LDOSHEV

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

РОЛЬ ПРИНЦИПА ИСТОРИЗМА В ИЗУЧЕНИИ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО АСПЕКТА ЯЗЫКА

Акромжон Махмудович КУЛДАШЕВ

Кандидат филологических наук, доцент

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

THE ROLE OF THE HISTORICIST PRINCIPLE IN INVESTIGATING THE FUNCTIONAL ASPECT OF THE LANGUAGE

Akram Makhmudovich KULDASHEV

Candidate of Sciences, Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan akramkuldashev@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 811.11-112:811.11'342(09)

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Qo'ldoshev A. M. Tillarni tadqiq qilishda tarixiylik tamoyilining o'rni va ahamiyati// O'zbekistonda xorijiy tillar.— 2022. — № 1 (42). — B. 32-46.

<https://doi.org/10.36078/1648726137>

Received: December 15, 2021

Accepted: February 17, 2022

Published: February 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqola tilshunoslikdagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan — lingvistik tadqiqotlarda tarixiylik tamoyili masalasining ilmiy adabiyotlarda qo'llanilish holatini o'rganishga bag'ishlangan. Tabiiy-ki, unda tilda bo'ladigan turli xarakterdagi o'zgarishlarning tabiati, turlari, ko'lam va bu innovatsiyalarning til funksional jihatlarini kengayishi yoki torayishiga ko'rsatadigan ta'siri kabi masalalar o'rin olgan. an'anaviy tilshunoslikda, mantiqiy yo'nalishda, struktural tilshunoslikda hamda hozirgi antroposentrizm paradigmasi davrida shakllangan lingvomadaniyatshunoslikning asosiy va yondosh yo'nalishlarida tilning tarixi, til strukturasida kuzatiladigan diaxron o'zgarishlar masalasi e'tibordan chetda qolib ketdi. bu narsa XX asr va XXI asr boshlarida, ayniqsa yaqqol ko'rinib qoldi. mazkur izlanishda tilshunoslik ta'limotlari tarixida kuzatilayotgan bu salbiy tendentsiyalarning kelib chiqish sabablari, antroposentrizmning asosiy ko'rinishlari, tillarni tadqiq qilishda tarixiylik tamoyilini qo'llamaslik, uning jihatlarini qo'llashda xatolarga yo'l qo'yish, unga etarli baho bermaslikning tillar tabiati, rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri baholashga to'siq bo'lishi mumkinligi ko'rsatib berildi. maqolani yozishga globalizm, xalqaro kontaktlarning keng tarqalishi kuzatiladigan bu dunyoda tilshunoslar tilning amaliy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishga, til birliklarining qiyinchilik va qo'llanish tezligi bo'yicha parametrlariga e'tibor berishlari natijasida lingvistikaning nazariy masalalari, dunyo tillari rivojlanish tarixining turli aspektlariga e'tibor qaratishga etarli darajada motivatsiyani his etmaslik holatlari kuzatilayotgani turtki bo'ldi. shularni inobatga olgan holda, mualliflar tarixiylik tamoyilining lingvistik tadqiqotlarda mantiqiylik tamoyilidan kam ahamiyatga ega emasligini fanning

taraqqiyoti ko'rsatib qo'yganligini izchil ravishda, tizimlilik yondashuvi asosida yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: til taraqqiyoti; sinxroniya; diaxroniya; tarixiylik tamoyili; tarixiy kategoriya; qiyosiy-tarixiy tilshunoslik; etnogenetik tadqiqotlar; til tarixi; jamiyat tarixi; sotsiolingvistika.

Аннотация. В статье рассматривается проблема роли и значения исторического принципа в исследовании функциональной стороны языка. Естественно, в ней исследуются такие вопросы, как характер, типы, масштабы изменений в языке и влияние этих нововведений на расширение или сужение функциональных аспектов языка. В традиционной лингвистике, в логическом направлении, в структурной лингвистике и в парадигме современного антропоцентризма — в основных и смежных школах когнитивизма, концептуальной семантики, психолингвистики и лингвокультурологии — игнорировалась история языка, в том числе и диахронические изменения языковой структуры. Особенно ярко это проявляется в XX и начале XXI века. В данной статье показаны причины этих негативных тенденций в истории языкознания, основные проявления антропоцентризма, неприменение принципа историзма при изучении языков, ошибки в применении его, природа языковых изменений. Также существует немало причин для написания статьи об этих и других тенденциях отрицания роли исторических факторов в современном языкознании. Например, в мире глобализма и распространения международных контактов лингвисты больше внимания уделяют практическим аспектам языка и теоретическим вопросам, связанным с расширением функциональной стороны иностранных языков. Имея это в виду, автор последовательно пытался осветить системный подход, показывая, что жизнь правильно подсказывает, что принцип историчности не менее важен, чем принцип логичности в лингвистических исследованиях.

Ключевые слова: развитие языка; синхрония; диахрония; принцип историзма; историческая категория; сравнительно-историческое языкознание; этногенетические исследования; история языка; история общества; социолингвистика.

Abstract. The article deals with the problem of the role and significance of the historical principle in the study of the functional aspect of the language. This article discusses issues such as the nature, types, extent of changes in the language and the impact of these innovations on the expansion or contraction of the functional aspects of the language. In traditional linguistics, in the logical direction, in structural linguistics and in the paradigm of modern anthropocentrism, the history of language in the main and related schools of cognitivism, conceptual semantics, psycholinguistics and linguoculturology, including diachronic changes in the language structure, were ignored. This is particularly evident in the 20th and early 21st centuries. This article shows the reasons for these negative trends in the history of linguistics, the main manifestations of anthropocentrism, the failure to apply the principle of historicism in the study of languages, errors in its application, as well as the nature of language changes. In the world of globalism and the spread of international contacts, linguists pay more attention to the practical aspects of the language and theoretical issues related to the expansion of the functional side of foreign languages. According to

the abovementioned, the authors consistently tried to highlight the systematic approach, showing that life correctly suggests that the principle of historicity is no less important than the principle of consistency in linguistic research.

Keywords: language development; synchrony; diachrony; the principle of historicism; historical category; historical comparative linguistics; ethnogenetic research; history of the language; social history; sociolinguistics.

Kirish. Mazkur maqolaning maqsadi hozirgi zamon tilshunosligida tillarni tadqiq qilishda tarixiylik tamoyilining o'rni va ahamiyatini german va turkiy tillar materialida yoritib berishdir. Muammoni tadqiq qilish bizga tarixiylik tamoyilining til va xalq tarixini o'rganishda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib berishga qodir. Biz fanda ko'pchilik obro'li olim va mutaxassislar, V. I. Abaev, R. G. Axmetyanov, N. A. Baskakov, E. Benvenist, E. A. Makaev, N. Y. Marr va boshqalar tomonidan ko'rsatib o'tilgan quyidagi holatlarni tishunoslikda tarixiylik tamoyilining asosiy yo'nalish va ko'rinishlari deb qabul qilishimiz mumkin. Izchillik, uzviylik, muqarrarlik, tasodifiylik, uzluksizlik, sababiylik tamoyillari va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

XXI asr globalizm asri ijtimoiy ong, tafakkur va insonlar dunyoqarashiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Bu kontekstda xalqlararo aloqalarning rivojlanishi, ularning tarixi, tiliga bo'lgan qiziqishini keskin kuchaytirdi.

Bu holatda ijobiy fikrlar, qarashlar, nazariyalar bilan bir qatorda mafkuraviy jihatdan zararli, tillar, xalqlar tarixini noto'g'ri aks ettiruvchi g'oya va qarashlarning yuzaga kelishi ham tabiiydir.

Mazkur maqolada fanda tillar va xalqlar ijtimoiy tarixini o'rganish jarayonida yo'l qo'yilgan turli xarakterdagi xatolarni bartaraf qilish maqsadida fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida tarixiylik tamoyilining tillarni tadqiq qilishdagi o'rni va ahamiyati masalasini imkon darajasida atroflicha, tizim tarzida ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Asosiy qism. Har qanday til haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish uchun bu tilning tarixini o'rganish, unga diaxronik tamoyil asosida yondashish kerak. Bu fikr xalqlar tarixining turli jihatlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlarda qayd etilgan (3; 4; 5; 6), chunki tilning bugungi holati ham ertaga tarixga aylanadi. So'zlovchilar o'zlarining tillarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni sezmaydilar (barchasi ham emas!). Har yili yuzlab so'zlar muomalaga kirsas, yana yuzlab so'zlar muomaladan chiqib, passiv lug'at tarkibiga, ballastga aylanib boraveradi. Nominatsiya jarayonining o'zi ham tarixiy tamoyil asosida ish yuritadi. Masalan, so'zlarning ma'nosi vaqti-vaqti bilan o'zgarib yangi ma'nolar paydo bo'ladi, eski ma'nolari muomaladan chiqib boraveradi. Bu sinxroniya ichidagi diaxroniyadir (qarang: N. Ya. Marr). Bu esa tilning mohiyat e'tibori bilan biz bilgandan ko'ra murakkabroq hodisa ekanligidan dalolat beradi. Tilning tarixini bilmay turib, uning buguni va kelajagini aniqlab bo'lmaydi (16, 23).

Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub bo'lgan german tillari jahon tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan til guruhlaridan biri hisoblanadi. Agar til guruhi juda ko'p o'rganilgan bo'lsa, unda ochilmagan muammolar qolmaganday tuyulishi mumkin. Ammo amalda unday emas. XIX–XX asrlarda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo'yicha izlanish olib borgan olimlar E. A. Makaev, N. I. Chemodanov, R. G. Axmetyanov va keyinroq strukturalistlar N. S. Trubetskoy, E. Benvenist tomonidan chiqarilgan ko'plab xulosalar XXI asrga kelganda u yoki bu jihatdan eskirib qolganligi olimlar tomonidan e'tirof qilindi (N. A. Baskakov, V. M. Jirmunskiy) va tilshunoslikning istiqboldagi taraqqiyotiga to'siq bo'la boshladi. Shuning uchun sistemaviy (tizimli) yondashuv avvalgi ayrim xulosalarni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. German tillarining qadimgi paytlardagi mavjudlik holatlari, ularning boshqa til guruhlar va oilalari bilan aloqalari masalasi, tarixi, arxeologiyani eng yangi yutuqlari yordamida o'rganishga tadbiq etildi, tilshunoslikdagi ayrim hukmlarni qayta ko'rib chiqish zaruriyatini paydo qildi. Gunnlar, ularning eng qadimgi turkiy tillardan bo'lgan Gunn tili va Yevropaning boshqa tillari shakllanishidagi o'rni masalasi shular qatoriga kiradi (3; 7; 8; 9; 10).

Gunnlar turkiy tillarda so'zlovchi xalqlar bo'lib, ular haqidagi dastlabki yozma manbalar eramizdan avvalgi III asrga tegishlidir (qarang: A. S. Amanjolov). Eramizdan avvalgi I asrlarda gunnlar g'arbga ko'chishni boshladi va 300 yil o'tgach o'zlariga ko'plab qabilalarni biriktirgan holda qabila ittifoqini tuzib, Markaziy Yevropa hududlarigacha yetib keldi. Bu narsa Yevropada eramizning III–VIII asrlarida sodir bo'lgan xalqlar buyuk ko'chishining boshlanganligidan darak berardi (7, 27).

Gunnlar tili haqidagi ma'lumotlar Sharqiy va Markaziy Yevropa, Oltoy, Shimoliy Xitoy, Sharqiy Turkiston va boshqa hududlarda topilgan yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan ism, nomlar, elementar matnlar va ayrim ikki tilli glossalarida berilgan bo'lib, ularni o'rganish gunnlar tili haqida muayyan bir ma'lumot beradi (12; 15; 16; 18; 19).

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka bo'lgan munosabat, lingvistik tahlilning sofliqi masalasi kun tartibiga qo'yilgan bir paytda tilshunoslar tomonidan yo'l qo'yilayotgan vulgarizatsiya va xalq etimologiyasidan hali lisoniy tahlilda foydalanilayotganligi uchun mavjud holatni yaxshilash maqsadida E. A. Makaevning haqiqiy ilmiy tahlil qanday bo'lishi kerakligi haqidagi fikri va ilmiy tavsiyalari hozirgi XXI asr tilshunosligida ham ahamiyatini saqlab qoldi (17).

Bu kabi fikrlar rang-barangligiga misollar keltirish ham yoki ularni tilshunoslik taraqqiyotining kechagi kuni sifatida e'tibordan chetda qoldirish ham mumkin. Ammo keyingi paytlarda tillar tarixi bilan shug'ullanishga kirishgan ayrim mutaxassis va olimlar (6, 24) tomonidan N. Y. Marr davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklar takrorlanmoqda va boshqa tilshunoslar tomonidan bu kabi holatlar,

hukmlar to'g'ri tahlil va xulosalar tarzida qabul qilinmoqda (21). Quyida biz tilshunoslikda tarixiy tamoyilini qo'llab tadqiqot olib borishda olimlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan asosiy xato va kamchiliklar haqida gapirib o'tishni lozim topdik:

1) tilshunoslikda tarixiylik tamoyilini qo'llashning nazariy asoslarini egallamaganlik holati ayrim tilshunos olimlar ishlarida ko'p yo'l qo'yilgan xatolar sarasiga kiradi (5);

2) izlanish obyekti yetarli darajada o'rganilmasdan turib juda yirik va salmoqli xulosalar chiqarish amaliyoti tilshunoslar ishlarida ko'p ko'zga tashlanadigan kamchiliklardan hisoblanadi (6);

3) o'rganilayotgan til tarixi faktlariga apriorizm nuqtai nazaridan yondashish va oqibatda noto'g'ri hukmlarni tadqiqot uchun dastlabki nazariy asos sifatida qabul qilish ko'plab tilshunoslarda kuzatiladi (14; 20; 22);

4) tillar tarixiy taraqqiyotining turli davr va faktlarini tahlil qilishda yoki yakuniy xulosa chiqarishda mantiqiy qarama-qarshiliklar mavjud (3; 18; 24);

5) turli davrlarga oid faktlarning izchil yoritib berishda voqea-hodisalar va tarixiy jarayonlarnig umumiy ketma-ketligini buzish, voqea-hodisalarni zamonda lokalizatsiya qilish jarayonini buzish eng keng tarqalgan kamchiliklardan hisoblanadi (5; 19);

6) izlanish obyektiga bu obyektida uchramaydigan belgini berish orqali tadqiqotning ilmiy jihatdan asoslanganlik darajasini pasaytirish ham kuzatiladi (3; 26);

7) keyingi paytlarda etnogenetik tadqiqotlar ko'p uchraydigan narsa bu dunyoviy va diniy bilimlarni aralashtirib yuborish bo'lib, unga ko'ra tadqiqotchida chinakam ilmiy tahlil uchun material yoki nazariy asos yetishmay qolsa darhol Injil yoki Qur'onga murojaat qiladi va u yerdan najot topishga xarakat qiladi (6; 18; 25).

Bu nuqtai nazarlarning noto'g'ri ekanligini ta'kidlash uchun ayrim nazariy masalalarni kengroq tahlil etish zarur. 1660-yilda por Royyal monastrida ishlab chiqilgan ratsional grammatikada esa til haqida fan tarixida birinchi marta grammatika va mantiq o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar borligi nazariy jihatdan asoslab berildi (21).

Ko'rinib turibdiki, antik tilshunoslik, Por-Royyal grammatikasida ham tilning sinxron tadqiqi, ya'ni muayyan olingan bir davrdagi tahlili amalga oshirilgan. Tilni segmentlash — bo'laklarga, birliklarga bo'lish, so'z va boshqa birliklarning tarixi, yoki inson tilining tarixini o'rganish, bu davrlarda fanning maqsadi qilib belgilanmagan edi, chunki til haqidagi fan hali yetarli darajada shakllanib bo'lmagandi (19; 20; 25).

Tilning o'zgaruvchan tarixiy kategoriya ekanligi faqatgina qiyosiy tarixiy tilshunoslik davridagina bazaviy tushuncha va tamoyil sifatida qabul qilinadi. Bu esa tilni tadqiq qilishda yangicha yondashuv bo'lib, avvalda izohlab bo'lmagan ko'p til faktlari va hodisalariga yangicha, to'g'ri, haqqoniy izohlar berish, til taraqqiyoti haqida adekvat tasavvurga ega bo'lish imkonini berdi.

Bu tarixiylik tamoyili faqat qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdagina kuzatiladi degani emas. Tilning ilmiy tahlili hozirgi zamonda

mavjud barcha maktab va yo‘nalishlarda tarixiy tamoyilsiz amalga oshirilmaydi. Tilning barcha birliklari — fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning tadqiqi u yoki bu birlikning tarixini hisobga olgan holda, o‘sha tarix fanida va mana shu tarix yordamida tasvirlanadi. Gap tilning muayyan bir statik holati haqida ketganda ham bu tamoyilning qo‘llanilishi tahlilning zaruriy sharti bo‘lib qoldi. Endi fanga diaxron tilshunoslikning asosiy tushunchasi vaqt, davrdan, universal tarixdan tashqari ayni bir vaqt oralig‘idagi tarixi yoki biror bir davrga aloqador bo‘lmagan jarayonlar, tushunchalar kirib keldi. Bunga misol qilib transformatsion grammatikadan “derivational history”, ya‘ni “muayyan bir til birligining yaratilish tarixi” terminini olsak bo‘ladiki, bu atama endi aniq bir davr yoki vaqtga tegishli emas, balki universal zamon tushunchasini, aniqrog‘i barcha zamonlar uchun Relevant bo‘lgan qonunlar sirasiga kiradi (23, 16).

Shunday qilib, tillarning tarixini ilmiy jihatdan o‘rganish XIX asrning birinchi choragida paydo bo‘ldi. Bunda turli tillar materialini qiyoslash orqali ular orasidagi tarixiy yaqinlik, umumiylikning yoki o‘xshamaslik belgilarini aniqlash yo‘li bilan tadqiqotlar amalga oshirila boshladi (7). Albatta, tillarni qiyoslash avvallari ham amalga oshirilgan (qarang: E. A. Makaev), ammo unda qiyoslash uchun bir biriga qarindosh bo‘lmagan har qanday tillar olingan. Bu tajriba qandaydir bir mantiqiy xulosalar chiqarish, nimalarnidir umumlashtirish va tizimlashtirish imkonini bermasdi. Buning ustiga faqat tilning lug‘at tarkibi, asosiy lug‘at tarkibigina emas, hatto o‘zlashtirilgan, qabul qilingan so‘zlar ham qiyoslash uchun obyekt sifatida olinar edi (9; 11; 18; 21). Tillarning grammatik qurilishi qiyosiy o‘rganish doirasidan chetda qolavergan (qarang: N. S. Trubetskoy). Tarixiy asosga ega bo‘lmagan yuqoridagi kabi primitiv qiyoslash tilning tarixini o‘rganishga hech narsa bermasdi. Tilshunoslik uchun muhimi har qanday qiyoslash emas, balki tarixga asoslangan va tarixni o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan qiyoslashdir (qarang: N. A. Baskakov, E. A. Makaev, V. I. Abaev). Tarixni hisobga olmagan qiyosning kognitiv qiymati minimal darajadadir. Tarixiy jihatdan davr sinovidan o‘tgan material asosida o‘tkazilgan qiyoslash esa tarixni o‘rganishning qudratli quroliga aylanadi (16).

Tilning tarixini o‘rganishda turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lgan. Masalan, A. Shleyxer tilda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni uning tarixi emas, balki o‘sishi deb qaraydi (11, 99–108). Tilning evolyutsiyasi bu uning o‘sishi, tarixi emas deganda tarixiylik tamoyilini lingvistik izlanishlar uchun asos qilib olgan tilshunoslar yosh grammatikachilar edi. Ularning vakili bo‘lgan G. Paulning “Til tarixining tamoyillari” (4, 136) asarining chiqqaniga 140 yil bo‘lgan bo‘lsa-da (birinchi nashri 1880 yil boshida chiqqan) haligacha kitob bu sohada tengsiz asar sanaladi. Bu asarni F. de Sossyurning “Kurs obtshey lingvistiki” yoki F. Fon Gumboldtning “O razlichiyax...” (qarang: A. M. Qo‘ldoshev) asari bilan tenglashtirish mumkin, agar G. Paulning tilshunoslik tarixida qoldirgan izini hisobga olsak.

Yosh grammatikachilardan G. Paulning quyidagi soʻzlari xarakterlidir “19 asrda tilshunoslik falsafiy davrdan tarixiylik davriga qadam qoʻydi” (24, 304).

Yuqorida aytilgan fikrlarni umumlashtirgan holda shuni xulosa qilib aytish joizki, tarixiylik tamoyili tilshunoslikning fan sifatida shakllanishida juda katta, asosiy rolni oʻynaydi. Tarixiylik tamoyili asos qilib olingan yana bir oqim sifatida N. Y. Marrning taʼlimoti namoyon boʻlgan edi (19; 20; 21). Bu taʼlimotning muhokamasi tilshunoslik tarixida juda koʻp muammolarni keltirib chiqardi (22; 23; 25). Jumladan, til birliklarining tarixiga murojaat qilgan, uni oʻzining qandaydir, maqsadlari uchun foydalangan har qanday izlanishni ham tarixiylik tamoyili asosida olib borilgan tadqiqot deb ayta olmaymiz. Faqatgina izchil, aniq tarixiy faktlardan til hodisalarini izohlashga tomon tizimli tarzda amalga oshirilgan va fanda mavjud u yoki bu muammoni yechishiga xizmat qilgan asargina bu tarixiylik tamoyiliga asoslangan tadqiqot deya olamiz. Ammo turli sabablarga koʻra, 1950-yilgi muhokamalar materiallari shu yerda eslatilmagan boʻlmasa-da, unga murojaat qilmaslik, uni unutish, bu masalalarga qaytmaslik, ularni inkor qilish, turli aniq sabablarga koʻra odatiy holga aylandi. Sobiq sovet jamiyati tarixida 50–70-yillarda sodir boʻlgan siyosiy jarayonlar, tendensiyalar, cheklashlar bu mavzuni tilshunoslar (qarang: T. A. Rastorgueva, N. A. Osokin, A. S. Sumbatzade) tomonidan aylanib oʻtishga sabab boʻldi.

Fanlar akademiyasi tizimidagi tilshunoslik institutida 1950-yil Moskvada N. Y. Marrning ijodi boʻyicha boʻlib oʻtgan diskussiya materiallari 2 tomda 950 betdan ortiqroq hajmda katta foliant razmerida 1951–1952-yillarda chop etilgan. Bu kitoblar bosib chiqarilgan paytdan beri tilshunoslik fanida juda koʻp voqealar sodir boʻldi (3; 10; 15).

Tilning shakllanishi va rivojlanishiga doir strukturalizm va yosh grammatikachilar maktabi tomonidan ilgari surilgan koʻplab fikrlar eskirdi, masalan, Markaziy Osiyo xalqlarida oʻzbek-rus bilingvizmi vaziyati, ammo shunday boʻlsa-da hatto hozirgacha ham ilmiy qiymatini yoʻqotmagan qarashlar, tahlillar va til materiali yoʻq emas.

Koʻrinib turibdiki, til faktlarini tahlil qilishda tarixiylik tamoyili juda katta rol oʻynaydi. Ammo shunga qaramasdan tarixning jamiyat va tilning rivojlanishidagi oʻrnini toʻgʻri tushunmaslik, yanglish fikrlar, uni falsafiy tamoyil sifatida butunlay inkor qilish yoki uni qoʻllashda izchillikning yetishmasligi tilshunoslar orasida (R. G. Axmetyanov) tez-tez kuzatilib turadigan xato boʻlganligi uchun vaqti-vaqti bilan bu taʼlimotni turli ogʻishlardan, volyuntarizmdan saqlash zaruriyati tugʻilib turadi. Tilshunoslik tarixida bu narsa 2 marta kuzatilgan. Birinchi marta 1950-yilda N. Y. Marr taʼlimotini tanqidiy tahlili vaqtida kun tartibiga asosiy masala sifatida kiritilgan edi. Ikkinchi marta 1957-yilgi “sinxron analiz va tillar tarixiy tadqiqining oʻzaro munosabati”

nomli mashhur diskussiyada bu narsaga yana murojaat qilindi (23, 27).

Bu diskussiyada juda muhim masalalar ko'tarilgan, yechim topgan va tilshunoslikning keyingi bosqichlarida ko'p marta murojaat qilingan (masalan: V. I. Abaev, N. A. Baskakov, V. M. Jirmunskiy, I. Metshaninov va boshqalar).

Jahon tilshunosligida bir xil alifboga ega, bir yozuv sistemasining bir davrda ikki xil til oilasiga mansub tillarga xizmat qilganligi kam uchraydigan hodisa emas. Xalqlar tarixidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo bu kabi tillar ko'p holatlarda bir-biriga yaqin yoki tutash bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlar bo'lib chiqadi. Mazkur maqolada biz so'z yuritmoqchi bo'lgan guruhlarining aholisi yashaydigan hududlari, aniqrog'i bu alifboda o'sha xalqlar tomonidan yaratilgan yozma yodgorliklarning topilgan joylari o'rtasidagi masofa besh — olti ming kilometrni tashkil qiladi. Shuning uchun german va turkiy tillar guruhini o'z tarixining aynan bir davrida bir xil yozuv sistemasidan foydalanganligi tarixiy fakt bo'lgan holda ular o'rtasidagi umumiylik tomonlari, bu alifbolarning kelib chiqish tomonidan qarindoshligi-qarindosh emasligi, masalasi hanuzgacha qorong'u bo'lib kelmoqda.

Bu o'rinda biz bu kabi ayrim boshqa muammolarni yechish va imkoni boricha ularga biron bir aniq izoh berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Chunki bu umumiy alifbolarda ayrim harf shakllari shu qadar o'xshashki, ularning qarindoshligi haqidagi fikr har qanday odamga shubhasizdek tuyuladi. Ammo ko'pchilik tilshunoslari esa imkoni boricha bu ikki alifbo o'rtasidagi umumiylikni inkor etishga harakat qiladilar (qarang: A. S. Amanjolov).

Izlanishni V–VI asr german runik yozuvidan boshlasak. Qadimgi skandinav va ingliz sakson so'zi "Run", qadimgi Island so'zi "Runar" va qadimgi yuqori nemis so'zi "Runa", qadimgi umumgerman uzagi "ru", got tilidagi "Runa" bilan bog'liq bo'lib, ular umumiy ma'no — "sir" degan ma'noni anglatadi (11). Xuddi shu so'zga shakldosh hozirgi zamon nemis tilidagi rünön "raunen" so'zi "shivirlamoq" degan ma'noni anglatadi (qarang: D. Diringer). Bu yozuvni runik deb atashga sabab balki qadimgi german xalqlarining boshqa barcha ibtidoiy xalqlar kabi turli xil belgilarga "iloxiy", "mo'jizaviy" yoki "sirli" tus berishi bilan izohlansa kerak. Chunki odatda bu sirli belgilar qabilaning eng bilimdon va obro'li vakillari bo'lmish — druidlar yoki shomonlar tomonidan turli qimmatbaho buyumlarga, taqinchoqlarga, qabr toshlariga, qurollarga o'yib yozilgan. Bu narsa keyinchalik yozuvlarning sirli ekanligi haqidagi tasavvurning kuchayishi oqibatida tarixda shu kabi belgilar tomonidan ko'pgina "mo'jizalar" ko'rsatilishi haqida gapira boshladilar. Masalan, qadimgi german Saga va dostonlarida runalarning sirli qudrati haqida so'z yurituvchi epizodlar bor. Jumladan, Sigurd haqidagi mashhur hikoyada bu qahramonning runalar sirli kuchidan foydalangan holda ajdarni o'ldirgani

tasvirlanadi. X asrda yashagan Skallgrimning o'g'li, Island qahramoni Egil haqidagi hikoyada ham biz shunga o'xshash voqeaning guvohi bo'lamiz (13).

Eramizdan avvalgi ikkinchi asrda german qabilalari bo'lmish kimmeriylar Evropani shimoldan to janubgacha kesib o'tishdi. Yutlandiyadan chiqib Janubiy Yevropani zabt etishga otlandilar (11; 12; 14).

Lekin ular eramizdan avvalgi 101 yilda Vergelli shaharchasi yonidan imperator Mariy qo'shinlari tomonidan tor-mor qilindi. Bu davrga oid arxeologik yodgorliklarga Avstriyaning Negou shahri yaqinida topilgan qurbonliklar qabri mansub bo'lib, unga jangda harbiy asir bo'lgan rimliklardan tortib olingan shlemlar terib qo'yilgandi. Bu shlemlarning birida etrusk harflari bilan german tillarining birida yozilgan yozuv bor. Bu german tillariga mansub bo'lgan eng qadimgi yozma yodgorlikdir (11).

Eramizning III asridan VI asrigacha bo'lgan davrga mansub runik yozuv yodgorliklaridan 50 dan ortig'i saqlanib qolgan. Bundan tashqari, 200 dan ortiq yozuv IX–XI asrlarga mansubdir. Runik yozuvlarning eng qadimiysi deb Daniyaning Janubiy-g'arbiy qismidagi Fyun orolida joylashgan VI Moseda topilgan taqinchoqdagi yozuv hisoblanib, u III asr o'rtalariga tegishlidir. Eng qadimgi yodgorliklardan yana biri bu Shlezvigdagi Torsbergda topilgan pichoqqa bitilgan yozuvlar bo'lib, ular 300-yillarga to'g'ri keladi. Bu kabi ma'lumotlar A. Diringerning "Alfavit" asarida ko'plab keltirilgan. Shunisi hayratlanarliki, qadimgi german adabiyoti gullab yashnagan Islandiya runik yozuvlarga juda kambag'al. U yerda topilgan eng dastlabki runik yozuv 1200-yillarga tegishlidir (13, 14).

Runik yozuvlarning geografik tarqalishining Shimoliy G'arb tomonidan eng uzoq nuqtasi 72 gradus 55 minut Shimoliy kenglik bo'lib, bu yer Grenlandiyadan g'arbrokdagi Baffin qo'ltig'idagi Kingstorsdak yozuvlari asosida kelib chiqqan. Runik yozuv qora dengiz bo'ylaridagi Shimoliy hududlarda gotlar tomonidan ishlab chiqilgan.

1. Qadimgi german va turkiy qabilalar o'rtasida aloqalar bo'lgan.

2. Runik yozuvni gotlar e.a. VI–IV asrlarda Yevropaga olib kirgan.

3. Bu davrda ular qora dengizning shimolidagi katta hududlarda yashar edilar.

E'tibor bergan bo'lsangiz biz I. Teylorning "gotlar runik yozuvni kashf etganlar" degan fikrga qo'shimcha tarzda va "gotlar bu alifboni Yevropaga olib keldilar va barcha boshqa german xalqlari orasida yoydilar" deb aytdik. Bunga esa bizda quyidagi asoslar bor.

1. Runik yozuv grek alifbosidan e.a. VI asrda yaratilmagan. Sababi shundaki, bu davrda allaqachon runik bitiklar mavjud edi. Xususan, hozirgi Yettisuv, Quva va boshqa hududlarda (4), yozuv keng qo'llanilgan.

2. Gotlar bu alifboni o'zlari kashf etmaganlar, balki uni tayyor holda oldilar va ayrim juz'iy o'zgarishlarni kiritdilar. Gotlar bu yozuvni skif-gunnlardan, ya'ni hozirgi turkiyguy xalqlarning ajdodlaridan olganlar.

3. Turkiy qabilalar esa runik bitiklardan Sharqda Buyuk Xitoy devoridan G'arbda Markaziy Yevropagacha, shimolda Oltoydan janubda to Eron, Arabiston chegaralarigacha bo'lgan ulkan hududlarda foydalandi va turkiy qavmlar bilan kontaktda bo'lgan barcha xalq u yoki bu jihatdan bu yozuvdan foydalanardi.

4. Eramizdan avvalgi VI–V asrlardagi turkiy runik yozuvi bilan german runik yozuvlarining tovush ma'nolari o'rtasida farq yo'q edi. Keyin o'tgan 500–600 yildan so'ng german tillarida so'zlashuvchi xalqlar bu alifboni o'z fonetikasiga mosladilar va alifboda bir qator o'zgarishlar paydo bo'ldi. Aniqrog'i runalar turkiy alifboda bildirilgan tovush ma'nolarini boshqa tovushlarni bildirish uchun qo'llanila boshladi. Bu o'rinda harflarning tashqi o'xshashligi butunlay saqlanib qoldi.

Aytilgan fikrlar isbotsiz gaplar bo'lib qolmasligi uchun ayrim til faktlariga murojaat qilamiz: German runalarining va O'rxun-Enasoy yozuvlari alifbolarini qiyoslash ayrim juda qiziq xususiyatlarni namoyish etadi. German runik yozuvidagi "4" belgisi "s" tovushini ifodalaydi. Xuddi shu belgi turk runalarida "R" tovushini ifodalaydi. Bu narsa shundan dalolat beradiki, eramizdan avvalgi VI–III asrlarda qadimgi germanlar (aniqrog'i gotlar) va turkiylar (aniqrog'i skiflar va gunnlar) Sharqiy Yevropa va unga tutashgan hududlarda qo'shnichilikda yashaganlar va ular o'rtasidagi aloqa juda qalin bo'lgan. Rotasizm hodisasi, ya'ni [s] ning [z] orqali [r] ga o'tishi shu paytda sodir bo'ladi. Aniqrog'i rotasizm germanlarda sodir bo'lib ulgurmadi va turkiylarda esa rotasizm sodir bo'lib o'tdi (17, 26).

Tilshunoslik va yozuv tarixida "boshqa tillarda ham, jumladan, slavyan tillarida ham runik yozuv bo'lgan" degan fikrni isbotlashga urinishlar ko'p bo'ldi, ammo ularning barchasi asossiz bo'lib chiqdi. Qadimgi turk runik yozuvlarini chuqur tadqiq etgan olimlardan biri A. S. Amonjolovdir (4). O'zining doktorlik dissertatsiyasida u yozadiki: Ili daryosi vodiysida qadimgi grek alifbosida bitilgan ikki yozuv topilgan. Ulardan birini tushunib bo'lmadi. Ikkinchisi esa eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalariga mansub bo'lib, u turkiy tilda yozilgan. Bu yozuv bilan O'rxun-Enasoy va runik yozuvlarining nisbatan juda stabil (turg'un) ekanligi haqida dalolat beradi. Qadimgi grek alifbosining Markaziy Osiyoda yashab qola olmaganligi turkiy yozuv an'alarining juda kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Paleografik tahlil turk runik Alfatini juda qadimiy ekanligi va uning eramizdan avvalgi 600 yillik o'rtalarida Janubiy Sibir, Yettisuv va Markaziy Osiyoning Sharqiy qismlarida paydo bo'lganligidan dalolat bermoqda. Bu alifbo birinchi navbatda qadimgi grek alifbosining kichik Osiyo va Italiy variantlari bilan o'xshashlik tomonlari bo'lsa, ikkinchi tomondan Shimoliy — semit

— Finikiya va o'rta oromiy va Janubiy semit alifbosiga aloqador. Bu esa Shimoli-Sharqiy Osiyo, ko'chmanchi va o'troq aholisining Old Osiyo aholisi bilan e.a. I ming yillikda aloqalari juda qalin bo'lganligi va bu aloqalarni o'rnatishda va saqlashda Markaziy Osiyo xalqlarining juda katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi (6; 9; 10; 12).

Turkiy runik alifbosi juda boy va mustaqil shakllangan yozuv-grafik sistemasidir. Turkiy runalarning qadimgi semit, qadimgi grek, italiy, Venet, etrusk, pissen, messap va kichik Osiyo alifbolari bo'lmish — Kariy, Likiy, Lidiya, sidet alifbolari harflari bilan ayrim o'xshashligi esa turkiy runik alifbosining o'z tarixiy taraqqiyotiga juda katta yo'lni bosib o'tganligi va barcha alifbolarga asos bo'lib xizmat qilgan va nihoyat qandaydir bir umumiy alifboli yozuvga borib taqalishini ko'rsatadi (4).

Turk runik yozuvini o'rganib chiqqach, mashhur olim S. E. Malov shunday qarorga keldi va dedi: "bu yozuvlarni o'rganib chiqqach men turkiy tillar tarixan hozirgi davrdan kamida 2,5 ming yil avval o'tgan davrda paydo bo'lgan degan xulosaga keldim" (18). Biz mashhur olimning bu fikriga to'la qo'shilamiz, chunki obyektiv haqiqatni ifoda qilgan.

Xulosalar. Bir tilda bir millat emas, ketma-ket tarixiy izchillikda yashagan bir necha millat (yoki elat, el, qabila, etnos kabi birliklar) so'zlashgan yuqoridagi sodda sxemaning noto'g'ri ekanligini bildiradi. German xalqlarining 3 ming yillik tarixi ham yuqoridagi tezisni isbotlab turibdi. Nogerman xalqlar: rimliklar, slavyanlar, keltlar va ayrim turkiy xalqlar german tillarini o'z ona tillari sifatida qabul qilishdi va keyinchalik o'z larining boshqa etnik butunlikdan rivojlangan xalq ekanligini unutib yubordilar (16, 26).

Gunnlar tilining german va roman tillari ustidan g'olib chiqa olmaganiga har ikki xalqlar o'rtasidagi etno-madaniy saviyaning turlicha bo'lganligi turlicha bo'lganligiga birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi sabab esa assimiliyasiya uchun yetarli vaqtning bo'lmaganligidir.

1. German xalqlari tomonidan "haqiqiy german yozuvi" deb atalgan runik yozuv haqiqatda german runik yozuvi bo'lmay, balki turkiy runik yozuvining o'zginasidir.

2. Tarix maydonida paydo bo'lgan german xalqlari o'troqlasha va madaniylasha borgach, ular orasida eng rivojlanganlari Sharqiy germanlar yozuviga ehtiyoj sezib o'zlari qalin aloqada bo'lgan turkiy qavmlar qadimdan qo'llab kelayotgan yozuvlaridan foydalana boshladilar va o'z fonetik strukturasi talablaridan kelib chiqqan holda bu alifboga kerakli o'zgartirishlar kiritdilar.

3. Ruminiyada german runik yozuvlarining katta xazinasi topilganligi esa "xalqlar Buyuk ko'chishi" deb atalmish tarixiy voqea davrida german va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalarning o'zining apogeyiga chiqqanligini ko'rsatadi.

4. Mazkur tadqiqot bu mavzuga oid birinchi harakat bo'lganligi sababli bu keng qamrovli masalaning to'la yechimini bera olmaganligi tabiiy. Bundan keyingi izlanishlar bu ikki

alifboning o'xshash va farqli tomonlarini to'la ochib beradi degan umiddamiz.

5. Yevropadagi iqtisodiy, siyosiy, harbiy vaziyatning bir maromda bo'lmaganligi, doimiy urushlar, aholi tarkibining tez-tez o'zgarishi, til vaziyatining murakkabligi aholiga gunnlari tilini asosiy muloqot tili sifatida qabul qilishga imkon bermadi. Xalqlar buyuk ko'chishining Yevropa til vaziyati va german tillariga ko'rsatgan ta'sirini ikki tomonlama ekanligini aytib o'tish mumkin:

a) bu ko'chish Yevropadagi o'sha davrda mavjud bo'lgan turli oilalarga mansub qabila tillarining birlashib xalq tillariga aylanishiga olib keldi. Qabila Ittifoqi safida tashkil etilgan davlat birlashmalarida siyosiy-harbiy jihatdan dominant bo'lgan qabilalar tillari o'sha xalqlar orasida yetakchi tillarga aylandi;

b) German qabilalari tillarining milliy tillarga rivojlanishi ularning ko'chish natijasida qaysi hududga borib qolganligiga bog'liq bo'ldi;

v) German tillarida so'zlashuvchilar markazlashuvi kuchliroq bo'lgan hududlarda esa son va siyosiy harbiy jihatdan ustun qabila-germanlar o'z tilini saqlab qoldi;

g) innovatsiya tarzida o'zga tildan kirib kelgan so'z referensial ma'nosidagi psixik assotsiatsiyalarning asosiy assotsiatsiyalarga aylanish tamoyili kuzatildi. Xalqlar Buyuk ko'chishi til elementlarining zamon va makonda uzluksiz o'zgarishi va farqlanishini tasdiqladi. Xalqlar Buyuk ko'chishi til elementlarida rivojlanadigan ayrim farqlarning bir biridan mustaqil yuz berishga sabab bo'lishi aniqlandi;

d) jonli tillarning turli dialektlarda innovatsiya sifatida qabul qilingan til elementlarining tarqalishi asta sekin sodir bo'ladigan hodisaga xalqlar Buyuk ko'chishi turtki bo'ldi. Innovatsiya sifatida o'zga tildan kirib kelgan so'z foydalanish o'zgarishi okkazional modifikatsiya asosida sodir bo'lishi tasdiqlandi;

e) psixologik va grammatik kategoriyalar o'rtasidagi birlamchi garmoniyaning vaqtlar o'tishi bilan qayta tiklanish uchun kurashi bu jarayon uchun dolzarb bo'ldi. German tillarida urg'uning erkin holatdan birinchi bo'g'inga ko'chishi ham turkiy tillar ta'sirida ro'y berdi. Turkiy tillarda urg'u so'z oxiriga ko'chgan bo'lsa-da u so'zning ma'nosiga ta'sir ko'rsatish potentsiyasini yo'qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuldashev A. On some problems and principles of language change. // Наука и образование сегодня. — Москва, 2019, № 6 (41), Часть 2. — С. 37–38.
2. Kuldashev A.M., Khamzaev S. A., Begov F. R., Khudayberganov G. R., Khudayberganova M. A. Aspects of Research the Connotation in Compounds with Color Component (on the example of Uzbek Place Names) // International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). — Issue 1, Vol. 9, 2019. — P. 4619–4624. Doi: 10.35940,

3. Абаев В.И. Об историзме в описательном языкознании. // О соотношении синхронного анализа и исторического изучения языков. — М.: Изд-во акад. наук, 1960. — С. 56–63 с.
4. Аманжолов А.С. Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности — Дисс. на соиск. ... доктора наук, — Алма-Ата, 1975. — 380 с.
5. Ахметьянов Р.Г. Сравнительное исследование татарского и чувашского языков (фонетика и лексика). — М.: Наука, 1978. — 248 с.
6. Базен Л. Человек и понятие истории у тюрков Центральной Азии. // Зарубежная тюркология. — М.: Наука, 1986. — С. 361–379.
7. Баскаков Н.А. Алтайская семья языков и ее изучение. — М.: Наука. 1981. — 136 с.
8. Бенвенист Э. Общая лингвистика. — М.: Прогресс, 1974. — 448 с.
9. Бенциг А. Языки гуннов, дунайских и волжских болгар // Зарубежная тюркология. — М.: Наука, 1986. — С. 11–28.
10. Буданова В.М., Горский А.А., Ермолова, И.Е. Великое переселение народов: этнополитические и социальные аспекты. — М., 2005. — 186 с.
11. Дирингер Д. Алфавит. — М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. — 720 с.
12. Древнетюркский словарь. — М.-Л.: Наука, 1969. — 730 с.
13. Жирмунский, В.М. История немецкого языка / В.М. Жирмунский. - Изд. 5-е, пересм. и испр. — М.: Высшая школа, 1965. — 408 с.
14. Кейдан А. «Калькированный архаизм» готского языка. // Индоевропейское языкознание и классическая филология. Материалы чтения посвященного памяти проф. И.М. Тронского. — СПб, 2006. — С.149–155.
15. Кулдашев А.М. Роль принципа историзма в этногенетических исследованиях. // Наука и образование сегодня. — Москва, 2019, — № 5 (40). — С. 60–61.
16. Кўлдошев А.М. Тилшуносликда тарихийлик тамойили. — Т.: Фан, 2020. — 300 б.
17. Макаев Э.А. Общая теория сравнительного языкознания. — М., 1977. — 205 с.
18. Малов С.Е. Памятники древне тюркской письменности. — М.: Наука, 1947. — 432 с.
19. Марр Н.Я. Избранные работы. Том II. — М., 1936. — 521 с.
20. Марр. Н. Я. Избранные труды по языкознанию. — М.: Наука, 1948. — 450 с.
21. Мещанинов И. Глоттогонический процесс и проблема стадильности // Известия Академии наук СССР. Отделение литературы и языка. — М., 1941. — [Т. II.] № 3. — С. 8–28.
22. Осокин Н.А. История средних веков. — Минск: Харвест, 2003. — 672 с.
23. Расторгуева Т.А. История английского языка. — М., 2003. — 348 с.
24. Сумбатзаде А.С. Азербайджанцы — этногенез и формирование народа. — Баку, 1990. — 302 с.
25. Трубецкой Н.С. Вавилонская башня и смешение языков — наследие Чингисхана — М., 1999. — 240 с.

26. Чемоданов Н.С. Германские языки // Сравнительно-историческое изучение языков разных семей: Задачи и перспективы. — М.: Изд. Наука, 1982. — С. 91–116.

References

1. Kuldashev A. *Nauka i obrazovaniye segodnya*, Moscow, 2019, No. 6 (41), Part 2, pp. 37–38.
2. Kuldashev A.M., Khamzaev S. A., Begov F. R., Khudayberganov G. R., Khudayberganova M. A. *International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT)*, Issue 1, Vol. 9, 2019. pp. 4619–4624. Doi: 10.35940
3. Abayev V.I. *Ob istorizme v opisatel'nom yazykoznanii* (About historicism in descriptive linguistics), Moscow: Nauka, 1960, pp. 56–63.
4. Amanzholov A.S. *Materialy i issledovaniya po istorii drevnetyurkskoy pis'mennosti* (Materials and Research on the History of Ancient Turkic Writing), Doctor's thesis, Alma-Ata, 1975, 380 p.
5. Akhmet'yanov R.G. *Sravnitel'noye issledovaniye tatarskogo i chuvashskogo yazykov* (Comparative Study of the Tatar and Chuvash Languages), Moscow: Nauka, 1978. 248 p.
6. Bazen L. *Zarubezhnaya tyurkologiya* (Foreign Turkology), Moscow: Nauka, 1986. pp. 361–379.
7. Baskakov N.A. *Altayskaya sem'ya yazykov i yeye izucheniye* (The Altai Family of Languages and its Study), Moscow: Nauka. 1981. 136 p.
8. Benvenist E. *Obshchaya lingvistika* (General Linguistics), Moscow: Progress, 1973, 640 p.
9. Bentsig A. *Zarubezhnaya tyurkologiya* (Foreign Turkology), Moscow: Nauka, 1986. pp. 11–28.
10. Budanova V.M., Gorskiy A., Yermolova, I.Ye. *Velikoye pereseleniye narodov: etnopoliticheskiye i sotsial'nyye aspekty* (The Great Migration of Peoples: Ethnopolitical and Social Aspects), Moscow, 2005, 186 p.
11. Diringier D. *Alfavit* (Alphabet), Moscow: Izdatel'stvo literatury na inostrannykh yazykakh, 1958, 720 p.
12. *Drevnetyurkskiy slovar'* (Ancient Turkic Dictionary), Moscow-Leningrad: Nauka, 1969, 730 p.
13. Zhirmunskiy, V.M. *Istoriya nemetskogo yazyka* (History of the German Language), Moscow: Vysshaya shkola, 1965. 408 p.
14. Keydan A. *Indoyevropeyskoye yazykoznaniye i klassicheskaya filologiya. Materialy chteniya posvyashchennogo pamyati prof. I.M. Tronskogo* (Indo-European Linguistics and Classical Philology. Materials of the Reading Dedicated to the Memory of Prof. I.M. Tronsky), Saint-Petersburg, 2006, pp.149–155.
15. Kuldashev A.M. *Nauka i obrazovaniye segodnya*, Moscow, 2019, No. 5 (40). pp. 60–61.
16. Kuldashev A.M. *Tilshunoslikda tarikhiylik tamoyili* (The Principle of Historicism in Linguistics), Tashkent: Fan, 2020, 300 p.
17. Makayev E.A. *Obshchaya teoriya sravnitel'nogo yazykoznaniya* (General Theory of Comparative Linguistics), Moscow, 1977, 284 p.
18. Malov S.Ye. *Pamyatniki drevne tyurkskoy pis'mennosti* (Monuments of Ancient Turkic Writing), Moscow: Nauka, 1947, 432 p.
19. Marr N.YA. *Izbrannyye raboty* (Selected Works), Volume II, Moscow, 1936, 275 p.
20. Marr N. YA. *Izbrannyye trudy po yazykoznaniyu* (Selected Works on Linguistics), Moscow: Nauka, 1948. 450 p.

21. Meshchaninov I. *Izvestiya Akademii nauk SSSR. Otdelenie literatury i yazyka*, 1941, No. 3, pp 8–28.
22. Osokin N.A. *Istoriya srednikh vekov* (History of the Middle Ages), Minsk: Kharvest, 2003, 672 p.
23. Rastorguyeva T.A. *Istoriya angliyskogo yazyka* (History of the English Language), Moscow, 2005. 350 p.
24. Sumbatzade A.S. *Azerbaydzhantsy - etnogenez i formirovaniye naroda* (Azerbaijanis - Ethnogenesis and Formation of the People), Baku, 1990, 302 p.
25. Trubetskoy N.S. *Vavilonskaya bashnya i smesheniye yazykov – naslediye Chingiskhana* (The Tower of Babel and the Mixing of Languages - the Legacy of Genghis Khan), Moscow, 1999. 240 p.
26. Chemodanov N.S. *Germanskiye yazyki* (Germanic Languages), Moscow, Izd. Nauka, 1982. pp. 91–116.